

**BOSHLANG‘ICH SINIF “TARBIYA” DARSLARIDA MILLIY QADRIYATLAR
ASOSIDA AXLOQIY TARBIYANI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHART-
SHAROITLARI**

Qo’shnazarova Nozima Maxmutjon qizi
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
nozima.0739@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21206340>

Annotatsiya. Mazkur tezisda boshlang‘ich sinf “Tarbiya” darslarida o‘quvchilarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan. Milliy qadriyatlarni dars mazmuniga tanlash, ularni o‘quvchining hayotiy tajribasi bilan bog‘lash, axloqiy vaziyatlar orqali mustaqil fikr va munosabatni yuzaga chiqarish, oila–maktab hamkorligini yo‘lga qo‘yish hamda natijalarni mezonlar asosida kuzatish masalalariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, “Tarbiya” darsi, milliy qadriyat, axloqiy tarbiya, pedagogik shart-sharoit, axloqiy xulq, oila va maktab hamkorligi.

Boshlang‘ich ta’lim davrida bolaning odob, burch, mas’uliyat, yaxshilik, vijdon, hurmat va mehr-oqibat haqidagi dastlabki qarashlari muayyan tizimga tusha boshlaydi. Shu yoshda o‘quvchi kattalarning munosabati, sinfdoshlarining xatti-harakati va o‘zi ishtirok etgan vaziyatlarni kuzatib, ularga axloqiy baho beradi. Darsda o‘zlashtirilgan tushunchalar uning kundalik muomalasi, tanlovi va amaliy xulqida o‘z aksini topadi. Shu sababli milliy qadriyatlar asosidagi axloqiy tarbiya dars mazmuni, metod, vaziyat, muloqot va baholashning o‘zaro bog‘langan tizimida tashkil etilishi zarur.

Abdulla Avloniy tarbiya jarayonida muallimning shaxsiy namunasi hamda o‘rgatilayotgan bilimning amaliy xulq bilan uyg‘unligiga alohida ahamiyat beradi. U: “Shuning uchun tarbiya qiluvchi muallimlarning o‘zlari ilmlariga omil bo‘lub, shogirdlarga ham bergan darslarini amal ila chaqushturub o‘rgatmaklari lozimdur”, deb ta’kidlaydi [1, 12-b.]. Ushbu fikr tarbiyaviy mazmundagi bilim o‘qituvchining shaxsiy namunasi va amaliy faoliyati bilan mustahkamlanganida o‘quvchiga kuchliroq ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘qituvchining nafaqat so‘zlarini, uning muomala madaniyati, adolatligi, vazminligi va boshqalarga munosabatini ham kuzatadi. Shu jihatdan pedagogning xulqi “Tarbiya” darsida o‘rgatilayotgan milliy-axloqiy qadriyatlarning amaliy ifodasiga aylanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplardan biri sifatida belgilangan [3]. Ushbu talab boshlang‘ich ta’lim mazmunida milliy qadriyatlarni alohida mavzu sifatida bayon qilish bilan cheklanmasdan, ularni o‘quvchining fikrlashi, munosabati va kundalik xulqiga singdirishga yo‘naltirilgan metodik ishlarni tashkil etishni taqozo qiladi.

Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan ma’naviy qarashlari, axloqiy me’yorlari, urf-odatlar, an’analari va ijtimoiy tajribasini ifodalaydi. Ularni faqat bayram, milliy kiyim, taom yoki tarixiy ma’lumot bilan chegaralash qadriyatlarning tarbiyaviy mazmunini to‘liq ochib bermaydi. Qadriyatning asl mohiyati

uning insonlar o’rtasidagi munosabatlarga, shaxsning tanlovi va xatti-harakatiga ko’rsatadigan ta’sirida namoyon bo’ladi.

Ota-onaga hurmat, kattaga izzat, kichikka g’amxo’rlik, qo’ni-qo’shnihilik, mehmondo’stlik, hashar, halollik, andisha, sabr, mehnatsevarlik va va’daga sadoqat singari qadriyatlar bola tushunadigan aniq voqea hamda munosabatlar orqali ochib berilishi lozim. Masalan, “kattaga hurmat” iborasini umumiy tarzda izohlashdan ko’ra, avtobusda yoshi ulug’ kishiga joy berish, buvining yumushiga ko’maklashish, suhbatdoshning so’zini bo’lmaslik yoki kekka qo’shning holidan xabar olish bilan bog’liq vaziyatni muhokama qilish o’quvchiga yaqinroq va ta’sirchanroq bo’ladi.

Birinchi pedagogik shart-sharoit dars uchun tanlanadigan qadriyatning o’quvchi yoshi, mavzu mazmuni va hayotiy tajribasiga muvofiqligidir. Boshlang’ich sinf o’quvchisi mavhum axloqiy tushunchadan ko’ra ko’rgan, his qilgan va tasavvur eta oladigan vaziyatni yaxshiroq anglaydi. O’qituvchi qadriyatni tanlashda uning bolada qaysi munosabat va xulqiy sifatni rivojlantirishini oldindan aniqlab olishi kerak.

Masalan, “hashar” mavzusi umumiy mehnat, beg’araz yordam va jamoaga daxldorlikni; “mehmondo’stlik” mavzusi samimiy muomala, saxovat va mehmonning qadriyatini bilishni; “oilaviy an’ana” mavzusi avlodlar o’rtasidagi bog’liqlik hamda kattalar tajribasiga hurmatni anglatishi mumkin. Bunda o’quvchi qadriyatning nomini yodlab olish bilan kifoyalanmay, uning insonlar hayotidagi ahamiyatini aniq voqealar orqali anglaydi.

Milliy tarbiya mazmuni bolaning milliy o’zligini anglashiga, ajdodlar tajribasiga hurmat bilan munosabatda bo’lishiga va o’z xalqiga xos axloqiy fazilatlarini kundalik hayotida namoyon etishiga xizmat qiladi. M. Qurinov milliy tarbiyani shaxsning milliy madaniyat, tarixiy xotira, xalqning ma’naviy tajribasi va ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanishi bilan bog’liq yaxlit pedagogik jarayon sifatida yoritadi [5]. Shu sababli milliy qadriyatlar o’quvchiga tarixiy meros sifatida tanishtirilishi bilan birga, bugungi hayotda amal qilinadigan axloqiy mezon sifatida ham tushuntirilishi kerak.

Ikkinchi pedagogik shart-sharoit axloqiy mazmunni bolaning faol fikrlashi orqali ochishdir. Tayyor xulosa aytilgan darsda o’quvchi o’qituvchining fikrini takrorlashi mumkin, biroq o’z qarorining sababini chuqur anglamasligi ehtimoli mavjud. Shu bois savol, muammoli vaziyat, kichik hikoya, rolli o’yin, taqqoslash va guruhli muhokamadan foydalanish muhim hisoblanadi.

Masalan, sinfdoshi daftarini uyida unutib qoldirgan bolaga yordam berish, topib olingan buyumni egasiga qaytarish, guruh ishida vazifani adolatli taqsimlash yoki xato qilgan do’stiga munosabat bildirish kabi vaziyatlar o’quvchini axloqiy tanlovga olib keladi. U “Nima qilish kerak?” savoliga javob berish bilan birga, “Nega aynan shunday yo’l tutish kerak?”, “Bu qaror kimga qanday ta’sir qiladi?”, “Boshqa yechim bo’lishi mumkinmi?” kabi savollar ustida ham fikr yuritadi.

Abdurauf Fitrat insonning ongli axloqiy tanlovda aqlning o’rnini izohlar ekan, uning vazifasi “nimaiki haq va foydali bo’lsa, ixtiyor etib, nimaiki zarar va botil bo’lsa, tark etish”dan iboratligini ta’kidlaydi [2, 66-b.]. Ushbu qarash “Tarbiya” darsida o’quvchini tayyor javobni takrorlashdan ko’ra, mavjud vaziyatni tahlil qilish, foydali va zararli oqibatlarni aniqlash hamda o’z tanlovini asoslashga o’rgatish zarurligini ko’rsatadi.

Uchinchi pedagogik shart-sharoit bilim, hissiy munosabat va xulqiy faoliyatning birligini ta’minlashdir. O’quvchi dastlab qadriyatning mazmunini anglaydi, keyin voqea qahramonining holatini his qiladi, so’ng uning qarorini baholaydi va o’z xatti-harakatini rejalashtiradi. Axloqiy tarbiyaning bunday izchillikda tashkil etilishi T. Lickonaning axloqiy

bilish, axloqiy his etish va axloqiy harakatning o‘zaro birligi haqidagi yondashuvi bilan hamohangdir [4].

To‘rtinchi pedagogik shart-sharoit milliy qadriyatlarni oila tajribasi bilan bog‘lashdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun oila eng yaqin va ta’sirchan tarbiya muhiti hisoblanadi. Bola oiladagi muomala, kattalarning o‘zaro munosabati, mehnat taqsimoti, bayram va marosimlar, kundalik odatlar orqali ko‘plab qadriyatlarni tabiiy ravishda o‘zlashtiradi. Shuning uchun darsda o‘rganilgan mazmunni oilaviy tajriba bilan bog‘laydigan topshiriqlardan foydalanish zarur.

Beshinchi pedagogik shart-sharoit axloqiy tarbiya natijasini faqat nazariy qoidalarini eslab qolish orqali o‘lchamaslikdir. O‘quvchining axloqiy rivojlanishi vaziyatning ma’naviy mazmunini anglashida, boshqa kishining holatini his qilishida, qarorini asoslashida, o‘z xatosini tan olishida va kundalik faoliyatida kuzatiladi.

Kuzatish, qisqa suhbat, vaziyatli topshiriq, o‘z-o‘zini tahlil qilish varag‘i, ijodiy ish va oilaviy kichik loyiha kabi usullar o‘quvchidagi o‘zgarishlarni aniqlashga yordam beradi. Baholash o‘quvchiga ko‘rsatiladigan keyingi pedagogik yordamning yo‘nalishini belgilashi kerak.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf “Tarbiya” darslarida milliy qadriyatlar asosidagi axloqiy tarbiyaning samaradorligi bir-biri bilan bog‘langan pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq. Dars mazmuniga o‘quvchining yoshi va hayotiy tajribasiga mos qadriyatlarni tanlash, ularni aniq hayotiy vaziyatlar orqali yoritish, o‘quvchini faol muhokama va axloqiy tanlovga jalb etish, bilim, hissiy munosabat hamda amaliy faoliyat birligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. Fitrat A. Tanlangan asarlar. V jild: Ilmiy risolalar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
4. Lickona T. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. – New York: Bantam Books, 1991.
5. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007.